



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI HOKIMINING
Q A R O R I

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel.: (+99876) 224-00-15, surxon@exat.uz, gov@sdv.uz

2024 - yil 23 - yanvar

49-8-0-Q/24

Surxondaryo viloyati hokimligi

**Termiz tumani “Yangiobod” mahallasi “Yangi O‘zbekiston” massivi hududidan
“Yangi O‘zbekiston” bog‘i tashkil etilishi uchun yer maydoni ajratish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 5-moddasiga va Vazirlar Mahkamasining “Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma‘muriy reglamentini tasdiqlash to‘g‘risida” 2021-yil 27-avgustdagi 543-son qaroriga asosan Termiz tumani hokimligining 2023-yil 18-dekabrda 01-03/18969-sonli xatini hamda “YERELEKTRON” AATga A1722220023/4 ID raqami bilan kiritilgan yer uchastkasiga tegishli tashkilotlar tomonidan berilgan xulosalarni inobatga olib,

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Termiz tumani “Yangiobod” mahallasi “Yangi O‘zbekiston” massivi hududidan tuman hokimligi zaxira yer fondidagi qishloq xo‘jaligi xaritasining 46-konturidan 11,0 gektar qishloq xo‘jaligida foydalanilmaydigan yer maydoni “Yangi O‘zbekiston” bog‘i tashkil etilishi uchun Termiz tumani hokimligiga doimiy foydalanish huquqi bilan ajratilsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Kadastr agentligi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (M.Abdiraxmanov)ga ajratib berilgan yer maydonidan samarali va maqsadli foydalanilishini doimiy nazorat qilib borish yuklatilsin.

3. Davlat kadastrlari palatasi Surxondaryo viloyati boshqarmasi (S.Shaymardanov) yer chegaralarini joyida (naturada) belgilashni amalga oshirsin va yer hisobotiga tegishli o‘zgartirish kiritish hamda yer uchastkasiga bo‘lgan huquqni davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishini ta‘minlasin.

4. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi (A.Abduraximov) qonunchilikda belgilangan tartibda qurilish ishlarining loyiha-smeta hujjatlariga muvofiqligini monitoring qilib borsin.

5. Mazkur qaror bir kun muddatda viloyat hokimligining rasmiy veb-sayti (surxondaryo.uz)da e‘lon qilinsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish viloyat hokimining o‘rinbosari A.Amirov

zimmasiga yuklansin.

**Surxondaryo viloyat hokimi
o'rinbosari**



A.X.Amirov